



NAVOIY VILOYATI STATISTIKA
BOSHQARMASI


QISHLOQ, O'RMON VA BALIQCHILIK XO'JALIGI 2024- YIL YANVAR-IYUN OYLARI




Dastlabki ma'lumotlar

2024- yilning yanvar-iyun oylarida Navoiy viloyatining qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi


Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2024- yilning yanvar-iyun oylarida qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat) larining umumiy hajmi 7 882,2 mlrd. so'mni yoki 2023- yilning mos davriga nisbatan 103,6 % ni, shu jumladan, dehqonchilik va chorvachilik, ovchilik va ushbu sohalarda ko'rsatilgan xizmatlar 7 564,2 mlrd. so'mni (104,0 %), o'rmon xo'jaligi – 231,7 mlrd. so'mni (102,7 %), baliqchilik xo'jaligi – 86,3 mlrd. so'mni (77,6 %) tashkil qildi. Respublika qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi tarkibida Navoiy viloyatining ulushi 4,6 % ni tashkil etdi.



Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)lar hajmining o'sish sur'ati




Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)lari umumiyligi hajmining taqsimlanishi, (% da).



2024- yilning yanvar-iyun oylari yakunlariga ko'ra, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat) lar umumiy hajmining 96,0 % –dehqonchilik va chorvachilik, ovchilik va ushbu sohalarda ko'rsatilgan xizmatlar, 2,9 % – o'rmon xo'jaligi, 1,1 % – baliqchilik xo'jaligi hissasiga to'g'ri keladi.


Shahar va tumanlar kesimida qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)larining hajmi (mlrd.so'm)



2024- yilning yanvar-iyun oylarida, shahar va tumanlar kesimida qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat) larining eng yuqori hajmi Xatirchi (2 249,1 mlrd. so'm), Qiziltepa (1 512,5 mlrd. so'm) va Navbahor (1234,7 mlrd. so'm) tumanlariga qayd etildi. Aksincha kam hajmga ega hududlarga Zarafshon (39,8 mlrd. so'm), Navoiy (44,7 mlrd. so'm), G'ozg'on shahar (63,6 mlrd. so'm) larini keltirib o'tish mumkin.

Yuqori o'sish sur'ati Konimex (105,5 %), Navoiy shahri (105,2 %), Nurota (105,0 %), Navbahor (104,7 %), Uchquduq (101,7 %), Qiziltepa tumanlari (101,7 %), Zarafshon (101,7 %), G'ozg'on shaharlarida (101,4 %) esa past sur'atlar kuzatildi.


Hududlar bo'yicha qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)larining o'sish sur'ati, (%) da




Qishloq xo'jaligi mahsulotlari

2024- yilning yanvar-iyun oylarida yetishtirilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari hajmi 7 486,5 mlrd. so'mni yoki 2023- yilning mos davriga nisbatan 104,0 % ni, shu jumladan, dehqonchilik mahsulotlari – 1 894,6 mlrd. so'mni (104,0 %), chorvachilik mahsulotlari 5 591,9 mlrd. so'mni (104,0%) tashkil qildi.

Qishloq xo'jaligi mahsulotlari yetishtirish hajmida dehqonchilik va chorvachilik mahsulotlarining ulushi



Yetishtirilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlari hajmining tumanlar kesimida taqsimlanishi (%) da




Qishloq xo‘jaligi mahsulotlari yetishtirish hajmida dehqonchilik va chorvachilik mahsulotlarining ulushi



Xo‘jalik toifalari bo‘yicha tahlillar, qishloq xo‘jaligi mahsulotlari umumiy hajmining 75,3 % i – dehqon va tomorqa xo‘jaliklariga, 19,0 % i – fermer xo‘jaliklariga, 5,7 % i – qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to‘g‘ri kelishini ko‘rsatmoqda.

Yetishtirilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlarining tumanlar bo'yicha xo'jalik toifalari kesimida taqsimlanishi (%) da




2024-yilning yanvar-iyun oylari yakuniga ko'ra yetishtirilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari tarkibidagi fermer xo'jaliklarining ulushi bo'yicha eng yuqori ko'rsatkich Qiziltepa tumanida (29,3 %), dehqon va tomorqa xo'jaliklarining eng yuqori ulushi Zarafshon shahrida (94,7 %), qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarning eng yuqori ulushi Navoiy shahrida (32,4 %) qayd etildi.

Dehqonchilik


2024- yilning yanvar-iyun oylarida yetishtirilgan dehqonchilik mahsulotlarining hajmi 1 894,6 mlrd. soʻmni yoki 2023- yilning mos davriga nisbatan 104,0 % ni tashkil etdi. Yetishtirilgan qishloq xoʻjaligi mahsulotlarining umumiyligi hajmida dehqonchilik mahsulotlarining ulushi 25,3 % ni tashkil qildi.

Donli ekinlar


Hajmi, ming tonna.



Oʼsish surʼati




Yetishtirilgan mahsulotning xoʻjalik toifalari boʼyicha taqsimlanishi



2024- yilning yanvar-iyun oylarida barcha toifadagi xoʻjaliklar tomonidan 205,1 ming tonna don (2023- yilning yanvar-iyuniga nisbatan 4,2 % ga koʼp) yetishtirildi. Don yetishtirish koʼrsatkichlarini xoʻjaliklar toifalari boʼyicha tahlil qilinganda, don yetishtirish umumiyligi hajmidan 89,3 % i fermer xoʻjaliklari hissasiga toʼgʼri kelishini koʼrsatmoqda.




Navoiy viloyati bo'yicha donli ekinlar yetishtirish hajmi, tonna




Kartoshka


Hajmi, ming tonna.




O'sish sur'ati




Yetishtirilgan mahsulotning xo'jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi



2024- yilning yanvar-iyun oylarida barcha toifadagi xo'jaliklar tomonidan 63,0 ming tonna kartoshka (2023- yilning yanvar-iyuniga nisbatan 3,0 % ga ko'p) yetishtirildi. Kartoshka yetishtirish o'satkichlarini xo'jaliklar toifalari bo'yicha tahlil qilinganda, kartoshka yetishtirish umumiy hajmidan 88,6 % i dehqon va tomorqa xo'jaliklari hissasiga to'g'ri kelishini ko'rsatmoqda




Navoiy viloyati bo'yicha kartoshka yetishtirish hajmi, tonna




Sabzavotlar


Hajmi, ming tonna.



O'sish sur'ati




Yetishtirilgan mahsulotning
xo'jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi



2024- yilning yanvar-iyun oylarida barcha toifadagi xo'jaliklar tomonidan 72,0 ming tonna sabzavotlar (2023- yilning yanvar-iyuniga nisbatan 3,8 % ga ko'p) yetishtirildi. Sabzavot yetishtirish ko'rsatkichlarini xo'jaliklar toifalari bo'yicha tahlil qilinganda, sabzavot yetishtirish umumiy hajmidan 82,4 % i dehqon va tomorqa xo'jaliklari hissasiga to'g'ri kelishini ko'rsatmoqda.




Navoiy viloyati bo'yicha sabzavotlar yetishtirish hajmi, tonna




Poliz ekinlari


Hajmi, tonna.



O'sish sur'ati




Yetishtirilgan mahsulotning
xo'jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi



2024- yilning yanvar-iyun oylarida barcha toifadagi xo'jaliklar tomonidan 9201,0 tonna poliz ekinlari (2023- yilning yanvar-iyuniga nisbatan 1,9 % ga ko'p) yetishtirildi. Poliz ekinlarini yetishtirish ko'rsatkichlarini xo'jaliklar toifalari bo'yicha tahlil qilinganda, poliz yetishtirish umumiy hajmidan 76,2% i dehqon va tomorqa xo'jaliklari hissasiga to'g'ri kelishini ko'rsatmoqda.




Navoiy viloyati bo'yicha poliz ekinlari yetishtirish hajmi, tonna




Meva va rezavorlar


Hajmi, ming tonna.



O'sish sur'ati




Yetishtirilgan mahsulotning
xo'jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi



2024- yilning yanvar-iyun oylarida barcha toifadagi xo'jaliklar tomonidan 36,4 ming tonna meva va rezavorlar (2023- yilning yanvar-iyuniga nisbatan 4,2 % ga ko'p) yetishtirildi. Meva va rezavorlar yetishtirish ko'rsatkichlarini xo'jaliklar toifalari bo'yicha tahlil qilinganda, meva va rezavorlar yetishtirish umumiyligi hajmidan 66,9 % i dehqon va tomorqa xo'jaliklari hissasiga to'g'ri kelishini ko'rsatmoqda.




Navoiy viloyati bo'yicha meva va rezavorlar yetishtirish hajmi, tonna




Uzum


Hajmi, tonna.



O'sish sur'ati




Yetishtirilgan mahsulotning xo'jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi



2024- yilning yanvar-iyun oylarida barcha toifadagi xo'jaliklar tomonidan 2576 tonna uzum (2023- yilning yanvar-iyuniga nisbatan 4,8 % ga ko'p) yetishtirildi. Uzum yetishtirish ko'rsatkichlarini xo'jaliklar toifalari bo'yicha tahlil qilinganda, uzum yetishtirish umumiylajmidan 82,5 % i fermer xo'jaliklari hissasiga to'g'ri kelishini ko'rsatmoqda.




Navoiy viloyati bo'yicha uzum yetishtirish hajmi, tonna



Chorvachilik

2024- yilning yanvar-iyun oylarida chorvachilik mahsulotlarini yetishtirish hajmi 5 591,8 mlrd. soʻmni yoki 2023- yilning mos davriga nisbatan 104,0 % ni tashkil qildi. Yetishtirilgan qishloq xoʼjaligi mahsulotlarining umumiy hajmida chorvachilik mahsulotlarining ulushi 74,7 % ni tashkil etdi.


Chorvachilik sohasining ichki imkoniyatlarini oshirish boʻyicha chora-tadbirlarning izchil amalga oshirilib borilayotganligi, shuningdek, ularga davlat tomonidan tizimli yordam koʼrsatilib kelinayotganligi chorva mollari bosh sonining koʼpayishiga, ichki isteʼmol bozorlarini chorvachilik mahsulotlari bilan toʼldirishga imkon yaratdi.




2024- yilning yanvar-iyun oylarida barcha toifadagi xoʼjaliklar tomonidan tirik vaznda 84,7 ming tonna goʼsht (2023- yilning yanvar-iyuniga nisbatan 4,0 % ga koʼp), 238,3 ming tonna sut (3,6 % ga koʼp), 203,5 mln. dona tuxum (5,6 % ga koʼp) yetishtirildi va 3,7 ming tonna baliq ovlandi.

Go'sht (tirik vaznda)

Hajmi, ming tonna.



O'sish sur'ati



Yetishtirilgan mahsulotning xo'jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi



 Fermer xo'jaliklari

 Dehqon va tomorqa xo'jaliklari


 Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar



2024- yilning yanvar-iyun oylarida barcha toifadagi xo'jaliklar tomonidan tirik vaznda 84,7 ming tonna go'sht (2023- yilning yanvar-iyuniga nisbatan 4,0 % ga ko'p) yetishtirildi. Go'sht yetishtirish ko'rsatkichlari xo'jaliklar toifalari bo'yicha tahlil etilganda, go'sht yetishtirish umumiy hajmidan 85,8 % i dehqon va tomorqa xo'jaliklari hissasiga to'g'ri kelganini qayd etish zarur.




**Navoiy viloyati bo'yicha
go'sht (*tirik vaznda*)
yetishtirish hajmi, tonna**




Sut


Hajmi, ming tonna.



O'sish sur'ati



Yetishtirilgan mahsulotning xo'jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi



 Fermer xo'jaliklari

 Dehqon va tomorqa xo'jaliklari


 Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar



2024- yilning yanvar-iyun oylarida barcha toifadagi xo'jaliklar tomonidan 238,3 ming tonna sut (2023- yilning yanvar-iyuniga nisbatan 3,6 % ga ko'p) yetishtirildi. Sut yetishtirish ko'rsatkichlarini xo'jalik toifalari bo'yicha tahlil qilinganda, sut yetishtirish umumiylajmiy hajmidan 90,3 % i dehqon va tomorqa xo'jaliklari hissasiga to'g'ri kelishini ko'rsatmoqda.




Navoiy viloyati bo'yicha sut yetishtirish hajmi, tonna




Tuxum


Hajmi, mln. dona



O'sish sur'ati



Yetishtirilgan mahsulotning xo'jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi



Fermer xo'jaliklari

Dehqon va tomorqa xo'jaliklari


Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar



2024- yilning yanvar-iyun oylarida barcha toifadagi xo'jaliklar tomonidan 203,5 mln. dona tuxum (2023- yilning yanvar-iyuniga nisbatan 5,6 % ga ko'p) yetishtirildi. Tuxum yetishtirish ko'rsatkichlari xo'jalik toifalari bo'yicha tahlil etilganda, tuxum yetishtirish umumiy hajmidan 68,2 % i dehqon va tomorqa xo'jaliklari hissasiga to'g'ri keldi.




Navoiy viloyati bo'yicha tuxum yetishtirish hajmi, ming dona




Baliq ovlash


Hajmi, tonna.



O'sish sur'ati



Yetishtirilgan mahsulotning xo'jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi



Fermer xo'jaliklari




Dehqon va tomorqa xo'jaliklari




Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar




2024- yilning yanvar-iyun oylarida barcha toifadagi xo'jaliklar tomonidan 3 665,0 tonna (2023- yilning yanvar-iyuniga nisbatan 76 %) ni tashkil etdi. Ovlangan baliqlar xo'jalik toifalari bo'yicha tahlil qilinganda, ovlangan baliq umumiy hajmidan 57,5 % i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar hissasiga to'g'ri kelganini ta'kidlash lozim.



Navoiy viloyati bo'yicha ovlangan baliq hajmi, tonna



Chorva mollari va parrandalar bosh soni




2024- yilning 1- iyul holatiga ko'ra, yirik shoxli qoramollar bosh soni to'g'risidagi ma'lumotlarni xo'jalik toifalari bo'yicha tahlil qilar ekanmiz, yirik shoxli qoramollarning 9,3 % i fermer xo'jaliklari hissasiga, 87,7 % i dehqon va tomorqa xo'jaliklariga, 3,0 % i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri kelishini qayd etib o'tish lozim, shunga mos ravishda qo'y va echkilarning umumiyligi sonidan 27,0 % i fermer xo'jaliklariga, 57,0 % i dehqon va tomorqa xo'jaliklariga, 16,0 % i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri keladi shuningdek, parrandalar umumiyligi sonidan 11,9 % i fermer xo'jaliklariga, 53,5 % i dehqon va tomorqa xo'jaliklariga, 34,6 % i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri keladi.


2024- yilning 1- iyul holatiga ko'ra, yirik shoxli qoramollarning umumiyl bosh soni 524,7 ming taga yetdi. 2023- yilning mos davri bilan solishtirilganda, barcha toifadagi xo'jaliklarda yirik shoxli qoramollar bosh soni 11,5 ming taga (2,2 %) ko'paydi.

Yirik shoxli qoramollar


Soni, ming bosh



O'sish sur'ati



Bosh sonining xo'jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi



Fermer xo'jaliklari

Dehqon va tomorqa xo'jaliklari


Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar



2024- yilning 1- iyul holatiga ko'ra, yirik shoxli qoramollar bosh soni to'g'risidagi ma'lumotlar xo'jalik toifalari bo'yicha tahlil etilganda, jami yirik shoxli qoramollarning 87,7 % i dehqon va tomorqa xo'jaliklariga to'g'ri kelishi kuzatildi.




**Navoiy viloyati
bo'yicha yirik shoxli
qoramollarning umumiy
bosh soni, ming bosh**




2024- yilning 1- iyul holatiga ko'ra, sigirlarning umumiyl bosh soni 209,5 ming taga yetdi. 2023- yilning mos davri bilan solishtirilganda, barcha toifadagi xo'jaliklarda sigirlar bosh soni (1,7 %) ga ko'paydi.

Sigirlar


Soni, ming bosh



O'sish sur'ati



Bosh sonining xo'jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi



Fermer xo'jaliklari

Dehqon va tomorqa xo'jaliklari


Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar



2024- yilning 1- iyul holatiga ko'ra, sigirlar bosh soni to'g'risidagi ma'lumotlar xo'jalik toifalari bo'yicha tahlil etilganda, jami sigirlarning 90,1 % i dehqon dehqon va tomorqa xo'jaliklariga to'g'ri kelishi kuzatildi.




**Navoiy viloyati
bo'yicha sigirlarning
umumi bosh soni,
ming bosh**




2024- yilning 1- iyul holatiga ko'ra, qo'y va echkilarning umumiy bosh soni 2 554,2 ming taga yetdi. 2023- yilning mos davri bilan solishtirilganda, barcha toifadagi xo'jaliklarda qo'y va echkilar bosh soni 58,9 ming taga (2,4 %) ko'paydi.

Qo'y va echkilar


Soni, ming bosh



O'sish sur'ati



Bosh sonining xo'jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi



Fermer xo'jaliklari

Dehqon va tomorqa xo'jaliklari


Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar



2024- yilning 1- iyul holatiga ko'ra, qo'y va echkilar bosh soni to'g'risidagi ma'lumotlar xo'jalik toifalari bo'yicha tahlil etilganda, jami qo'y va echkilarning 57,0 % i dehqon va tomorqa xo'jaliklariga to'g'ri kelishi kuzatildi.




Navoiy viloyati bo'yicha qo'y va echkilarning umumiyl bosh soni, ming bosh




2024- yilning 1- iyul holatiga ko'ra, otlarning umumi bosh soni 22 897 taga yetdi. 2023- yilning mos davri bilan solishtirilganda, barcha toifadagi xo'jaliklarda otlar bosh soni 712 taga (3,2 %) ko'paydi.

Otlar


Soni, bosh



O'sish sur'ati



Bosh sonining xo'jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi



Fermer xo'jaliklari

Dehqon va tomorqa xo'jaliklari


Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar



2024- yilning 1- iyul holatiga ko'ra, otlar bosh soni to'g'risidagi ma'lumotlar xo'jalik toifalari bo'yicha tahlil etilganda, jami otlarning 49,6 % i dehqon va tomorqa xo'jaliklariga to'g'ri kelishi kuzatildi.




**Navoiy viloyati
bo'yicha otlarning
umumiyl bosh soni, bosh**




2024- yilning 1- iyul holatiga ko'ra, parrandalarning umumiy bosh soni 3 885,7 ming taga yetdi. 2023- yilning mos davri bilan solishtirilganda, barcha toifadagi xo'jaliklarda parrandalar bosh soni 147,7 ming taga (4,0 %) ko'paydi.

Parrandalar



Bosh sonining xo'jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi



- Fermer xo'jaliklari
- Dehqon va tomorqa xo'jaliklari
- Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar



2024- yilning 1- iyul holatiga ko'ra, parrandalar bosh soni to'g'risidagi ma'lumotlar xo'jalik toifalari bo'yicha tahlil etilganda, jami parrandalarning 53,5 % i dehqon va tomorqa xo'jaliklariga to'g'ri kelishi kuzatildi.

**Navoiy viloyati
bo'yicha
parrandalarning
umumiyl bosh
soni,
ming bosh**

